

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSIYALARNI QO'LLASH AMALIYOTI

Artikova Nargiza Abdullajanovna

Toshkentdagi **Bucheon universiteti**
magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ularning ta'lim jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, STEAM ta'limi elementlari, interaktiv metodlar va inklyuziv ta'lim tamoyillarining joriy etilishi maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash omillari sifatida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion muhit yaratish, pedagoglarning malakasini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) integratsiya qilish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarning izchil joriy etilishi bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi, rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilaydi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining zamonaviy jamiyat talablariga moslashuvchanligini kuchaytiradi.

KALIT SO'ZLAR: maktabgacha ta'lim; innovatsiya; bolalar rivojlanishi; raqamli texnologiyalar; STEAM ta'limi; interaktiv metodlar; inklyuziv ta'lim; AKT integratsiyasi; innovatsion muhit.

АННОТАЦИЯ: В данной статье проводится научно-теоретический и практический анализ роли инноваций в системе дошкольного образования и их влияния на образовательный процесс. Показано, что внедрение современных педагогических подходов, цифровых технологий, элементов STEAM-образования, интерактивных методов и принципов инклюзивного обучения выступает важным фактором поддержки когнитивного, социального и эмоционального развития детей дошкольного возраста. Кроме того, рассматриваются вопросы создания инновационной среды в дошкольных образовательных организациях, повышения квалификации педагогов, интеграции информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), а также новые подходы, направленные на повышение качества образования. Результаты исследования показывают, что последовательное внедрение инноваций повышает интерес детей к обучению, улучшает показатели развития и усиливает адаптивность дошкольных образовательных организаций к требованиям современного общества.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: дошкольное образование; инновация; развитие детей; цифровые технологии; STEAM-образование; интерактивные методы; инклюзивное образование; интеграция ИКТ; инновационная среда.

ANNOTATION: This article provides a theoretical and practical analysis of the role of innovations in the preschool education system and their impact on the educational process. It demonstrates that the introduction of modern pedagogical approaches, digital technologies, STEAM education elements, interactive methods, and principles of inclusive education serves as an essential factor in supporting the cognitive, social, and emotional development of preschool children. The study also examines the creation of an innovative environment in preschool education institutions, professional development of teachers, integration of information and communication technologies (ICT), and new approaches aimed at improving the quality of education. The research findings indicate that the consistent implementation of innovations increases children's interest in learning,

enhances developmental indicators, and strengthens the adaptability of preschool institutions to the demands of contemporary society.

KEYWORDS: preschool education; innovation; child development; digital technologies; STEAM education; interactive methods; inclusive education; ICT integration; innovative environment.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2021-yil 1-apreldagi PF-6198 son farmoni hamda "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047 son qarori mamlakatimizda ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini joriy etish xususiyatlari, uning ahamiyati va zaruriyatidan kelib chiqqan holda vazifalar belgilangan[1].

Ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini joriy etishda innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlari ham muayyan sikllardan iboratdir. Ushbu nuqtai nazardan olib qaralsa, innovatsion jarayon vaqt o'lchamlarida izchil davom etuvchi, ahamiyati jihatidan bir xil bo'lgan turli xil bosqichlarda funksional jihatdan alohida mazmun kasb etib bir-biridan farqlanadigan faoliyat yig'indisidir.

Innovatsiya uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi fundamental g'oya va bilimlarning, ularni amalda qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- istiqbolli bo'lmaydigan loyihalarni aniqlab olish va to'g'ri qaror chiqarish;
- innovatsion g'oyani amaliyotga tatbiq etish jarayonida yanada takomillashtirish;
- yangilikni texnologik xususiyatlariga, boshqaruv va tashkiliy faoliyat yuritish uchun mas'ul bo'lgan tizimlarning xarakteriga moslashtirish imkoniyati bo'ladi[2].

Innovatsion potensialning moliyaviy resurslardan foydalanish funksiyalari esa:

- innovatsiyalarni joriy etish uchun talab etiladigan moliyaviy resurslarning kelib tushishini ta'minlash;
 - moliyaviy resurslarning innovatsion jarayonlarning mos holda ta'minlanish sharoitini yaratish;
 - innovatsion jarayonlarning amalga oshirilishini takomillashtirish;
 - innovatsiyalarning yaratilishi uchun shart-sharoit yaratib berish va rag'batlantirish;
 - mavjud innovatsion tizimning funksional faoliyati va rivojlanishi bilan bog'liq turli xil ehtiyojlarga mos keladigan innovatsion loyihalarning yaratilishiga ko'maklashish;
- innovatsion loyihalarni xarajatlarning optimal va samaradorligini ta'minlash[3].

Bugungi rivojlangan jamiyatimiz davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshiriladigan islohotlarning eng dolzarb bo'g'ini bu maktabgacha ta'lim tizimi hisoblanib islohotlarni eng quyi pog'onasidan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu kabi islohotlarni amalga oshirish jarayonlarini ijtimoiy jamiyatga tatbiq etishimizda biz maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi pedagoglarni faoliyatlarida ko'rishimiz mumkin. Ta'lim tarbiya jarayoni har bir jamiyatning ajralmas qismi va bolani katta hayotga jamiyatda o'z o'rnini topishga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim tizimining bugungi kun va bugungi amaliy ahamiyatga erishishi o'zining boy tajribasi va tarixi bilan bevosita bog'liq[4].

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida o'z-bilim tajribalari bilan faoliyat yuritadigan pedagog tarbiyachilar:

- bolalarga professional darajada ta'lim-tarbiya berishlari;
- pedagogik odob va etikaga rioya etishlari,

- bolaning faoliyat jarayonida sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishlari,
- bolalar turli zo'ravonlik holatlaridan himoya qilishlari,
- bolalarga vatanparvarlikning, mehnatning, qonun va huquq normalariga hurmat bilan va yashayotgan atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi ilk tarbiya ko'rinishlari bilan ruhida tarbiyalashlari;
- tarbiyachi tomonidan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini me'yoriy talablarini bajarishlari;
- tarbiyachi o'z malakasini muntazam oshirib borishlari;
- tarbiyachi pedagoglar o'z kasbiy ko'nikma malakalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirib borishlari bugungi kun talab darajasidagi pedagog maqomiga ega bo'lishlari;

Yuqoridagi talablarni bajarish uchun pedagog tarbiyachilarga doimo izlanish va maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanish bosqichi va tarixini o'rganishlari lozim.

Y. Shumpeter innovatsion sohada faoliyat yurituvchi subyektlarning quyidagi funksional vazifalarini belgilab beradi:

- innovatsiyalarni o'zlashtirishdan manfaatdor bo'ladigan potensial iste'molchilarni aniqlash maqsadida tijorat tahlilini amalga oshirish;
- istiqbolli g'oyalar mualliflarini, funksional faoliyat yuritish uchun imkoniyat beruvchi manbalarni izlab topish;
- yangiliklarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish jarayonlarini tashkillashtirish;
- yangiliklarning amaliyotga joriy etilishini qo'llab-quvvatlash.

Guruhdagi o'zaro shaxsiy munosabatlarni o'qituvchi, jamoa shakllanishiga qadar bo'lgan bosqichda maqsadli tashkil etishi lozim. Buning uchun u yuqori darajada rivojlangan kommunikativ o'quvga-munosabat va aloqalar o'rnatishga moyillik va iqtidor, ta'lim oluvchilarni tushuna bilishga ega bo'lishi kerak. S.V. Kondratevaning ma'lumotlariga ko'ra o'qituvchining ta'lim oluvchilarni tushunish darajasi va uning ularga ta'siri qandayligi o'rtasida muayyan o'zaro bog'liqlik mavjud. Tushunish darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchida xarakterni shakllantiruvchi ta'sir birinchi o'rinda turadi, tushunish darajasi past bo'lgan o'qituvchida esa-intizomiy ta'sirdir. Agar o'qituvchi ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishga yetarli e'tibor bermasa, bunda intizomni saqlab turish uchun ko'p kuch va vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Ta'lim oluvchilar shaxsiga ijobiy munosabat va rag'batlantirish tizimi pedagogik muloqot samarasining muhim qismi hisoblanadi[5]. Samarali rag'batlantirish mazmuni va mezonlari (P.Massan, J.Konjer va b. bo'yicha) quyidagicha: 1. Rag'batlantirish muntazam amalga oshiriladi. 2. O'qituvchi ayni nima rag'batlantirishga loyqligini tushuntirib beradi. 3. O'qituvchi ta'lim oluvchilar muvaffaqiyatiga qiziqish bilan qaraydi. 4. O'qituvchi muayyan natijalarga erishganlikni rag'batlantiradi va ta'lim oluvchilarga buning mohiyatini tushuntiradi. 5. Yaxshi natijalarga erishish maqsadida o'quvchilarni o'z ishlarini tashkil eta bilishlikka o'rgatadi. 6. Har bir ta'lim oluvchining rag'batlantirish u sarflagan kuch-g'ayratga muvofiq bo'lishi kerak. 7. O'qituvchi erishilgan natijani unga sarflangan kuch-g'ayrat bilan bog'laydi va bunday muvaffaqiyatga kelgusida ham erishish mumkinligini bildiradi. 8. Oldingi topshiriq bajarilgandan so'ng yangi ishga qiziqish uyg'onishiga harakat qiladi. 9. Ta'lim oluvchilarning e'tiborini o'zlashtirishning yuqori bo'lishligi mazkur ta'lim oluvchilar imkoniyatlaridan to'la foydalanishga bog'liq ekanligiga qaratadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Innovatsiyalar bolalarning intellektual, ijtimoiy, emotsional va ijodiy rivojlanishiga kompleks tarzda ta'sir

ko'rsatadi, ularning tabiiy qiziqishi va izlanish faolligini kuchaytiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, STEAM ta'limi elementlari, interaktiv metodlar hamda inklyuziv ta'lim tamoyillarining qo'llanilishi maktabgacha ta'lim jarayonini yanada samarali, qamrovli va bolaga yo'naltirilgan mazmunga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari innovatsion muhit yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini muntazam oshirish va AKTni o'quv jarayoniga integratsiya qilish maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish jarayonida metodik ta'minot, moddiy-texnik baza, pedagoglarning malakasi va ota-onalar bilan hamkorlik darajasini mustahkamlash zarur.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, maktabgacha ta'limda innovatsiyalarni tizimli ravishda joriy etish nafaqat bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi, balki ta'lim tizimining barqaror modernizatsiyasi va xalqaro standartlarga moslashuvini ham ta'minlaydi. Bu esa yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, ijodkor va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva N. Innovatsion ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti. 2020.
2. Jalilov A. Ta'limda innovatsion yondashuvlar va ularning samaradorligi. 2019.
3. Khamidov D. Pedagogik tadqiqotlar: nazariy asoslar va metodologiya Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti. 2022.
4. Qoraboyeva Z.T. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. Toshkent. 2021.
5. Yo'ldoshev N, Azlarova M, Xodjamuratova G. Menejment va marketing asoslari. O'quv qo'llanma. T. TDIU, 2012 y.
6. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining menejerlik ko'nikmasini shakllantirishga zamonaviy yondashuvlar// Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'» № 1/1 N kis — 2025 B 360-368
7. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'limda xalqaro hamkorlik ta'lim sifatini oshirish omili sifatida// ҚДПИ «Мақтабгача таълимда халқаро тажрибалар ва замонавий ёндашувлар » mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami 15 may 2024 йил Б 305-308
8. Valiyeva F.R. To Develop Professional Training of Professional Education Specialists by Ensuring //International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on International Research Development and Scientific Excellence in Academic Life Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470 2021/